

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TURIZM VA MEHMONXONA XO'JALIGI KAFEDRASI



«EASDIOLAYMAN»
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor
K.A.Samiyev

2025-yil

08.00.17 – TURIZM VA MEHMONXONA FAOLIYATI

ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura (PhD)ga kirish imtihoni

DASTURI

BUXORO - 2025

Imtihon dasturi 08.00.05 – “Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti” ixtisosligi pasporti asosida “Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrasining 2025-yil “24” 10 9 – sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan.

Tuzuvchi:

N.S.Ibragimov – Buxoro davlat universiteti Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlar doktori, professor.

B.N.Navruz-Zoda – Buxoro davlat universiteti Marketing va menejment kafedrası, iqtisodiyot fanlar doktori, professor.

Taqrizchilar:

A.B.Nizomov – Buxoro davlat texnika universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlar doktori, professor.

G.R.Xidirova – Buxoro davlat universiteti Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası professori, iqtisodiyot fanlar doktori.

Dastur Buxoro davlat universitetining ilmiy kengashida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan (“28” 10 2025-yil 3 -son majlis bayoni).

KIRISH

Keyingi yillarda O'zbekistonda turizmga sohasiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Soha rivoji uchun zaruriy tashkiliy-huquqiy mexanizmlar vujudga keltirilib, hukumat tomonidan tegishli me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Bu yo'nalishdagi ishlar hozir ham davom etayotgani fikrimizning isbotidir. Bugungi kunda turizm sohasi mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etishini va u jahon xo'jaligining ustuvor tarmoqlaridan biri ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

Mamlakatni modernizatsiyalash bosqichida turizm va mehmondo'stlik industriyasi sohasidagi yechimini kutib turgan masalalar qatorida, turizm industriyasi mehnat bozorida ishlovchi xodimlarga qo'yiladigan malakaviy talablarga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlash dolzarb masala bo'lib turibdi. Turizm sohasidagi ilmiy izlanishlarni olib borishda Turizm va mehmonxona faoliyati yo'nalishi bo'yicha fanlarni o'rganish muhim ahamiyatga ega.

DASTURNING MAQSADI VA VAZIFALARI

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura (PhD)ga kiruvchilar uchun mo'ljallangan ushbu imtihon dasturining asosiy **maqsadi** - talabgorlarning turizm va mehmondo'stlik industriyasi iqtisodiyoti, boshqaruvi va rivojlanish qonuniyatlari bo'yicha chuqur nazariy bilimlari, ilmiy-tadqiqot ko'nikmalari va tahliliy fikrlash salohiyatini baholashdan iboratdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun dasturda quyidagi **vazifalar** belgilangan:

- turizm va mehmonxona xo'jaligi iqtisodiyotining nazariy asoslari, rivojlanish qonuniyatlari va tarkibiy xususiyatlarini aniqlash bo'yicha bilimlarni baholash;
- turizm sohasi va mehmondo'stlik industriyasi faoliyatini tashkil etish, boshqarish va moliyaviy-iqtisodiy tahlil qilish ko'nikmalarini aniqlash;

- turizmning turlari, shakllari, resurslari, infratuzilmasi va ularning hududiy rivojlanish omillarini tahlil qila olish darajasini baholash;

- turizm va mehmonxona xizmatlari bozorida talab va taklif, raqobat muhiti, narx shakllanishi va marketing strategiyalarini tushunish darajasini aniqlash;

- turizmda davlat siyosati, tartibga solish, standartlashtirish, litsenziyalash va sertifikatlashtirish mexanizmlarini bilish darajasini baholash;

- xalqaro turizm tizimi, global tendensiyalar, “Buyuk Ipak yo‘li” merosi va O‘zbekiston turizm sohasining xalqaro integratsiyasi bo‘yicha nazariy bilimlarni aniqlash;

- mehmonxona xo‘jaligida xizmat ko‘rsatish sifati, menejment, innovatsion texnologiyalar va servis madaniyatini boshqarish bo‘yicha amaliy kompetensiyalarni tekshirish;

- turizm iqtisodiyotida matematik modellashtirish, statistika, tahlil va iqtisodiy prognozlash metodlaridan foydalanish ko‘nikmalarini aniqlash;

- turizm va mehmonxona faoliyati sohasida ilmiy tadqiqot olib borish, iqtisodiy muammolarni tahlil qilish va amaliy yechimlar ishlab chiqish salohiyatini baholash.

08.00.17 – “Turizm va mehmonxona faoliyati” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura (PhD)ga o‘qishga kiruvchi talabgorlar quyidagi bilim, tayyorgarlik va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur:

- turizmning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy mohiyatini, uning milliy iqtisodiyotdagi o‘rnini chuqur tushunish;

- turizm va mehmondo‘stlik industriyasining rivojlanish qonuniyatlari, turlari, shakllari va yo‘nalishlarini bilish;

- turizmda xizmat ko‘rsatishning nazariy asoslari, xizmat sifati va iste’molchi ehtiyojlarini qondirish mexanizmlarini tahlil qilish;

- turizm va mehmonxona xo‘jaligining zamonaviy boshqaruv tizimi, marketing strategiyalari hamda innovatsion rivojlanish tendensiyalarini bilish;

- xalqaro turizm siyosati, turizmga oid qonunchilik, normativ-huquqiy hujjatlar va davlat dasturlari mazmunini bilish.
- turizm va mehmonxona xo‘jaligi sohasida ilmiy izlanishlar olib borish uchun zarur bo‘lgan metodologik asoslar (analiz, sintez, statistik va iqtisodiy modellashtirish, prognozlash, ekspert baholash usullari)ni egallagan bo‘lish;
- turizm iqtisodiyotiga oid statistik ma’lumotlarni tahlil qilish, natijalarni ilmiy xulosalarga aylantira olish;
- ilmiy adabiyotlar, xalqaro tajriba, xorijiy manbalar bilan ishlash, ularni tanqidiy tahlil qilish va ilmiy yondashuvni shakllantirish malakasiga ega bo‘lish;
- turizm korxonalari (mehmonxona, turoperator, turagent, transport, ovqatlanish korxonalari) faoliyatini tahlil qilish va samaradorligini baholay olish;
- turizm xizmatlarni ishlab chiqish, narx belgilash, marketing strategiyasi va mijozlar bilan ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish;
- turistik marshrutlarni loyihalash, turpaket tuzish, xizmatlarni integratsiya qilish va ularning iqtisodiy samaradorligini hisoblashni bilish;
- kompyuter texnologiyalari va zamonaviy dasturiy vositalardan (MS Excel, SPSS, STATA, GIS, va boshqalar) ilmiy va amaliy faoliyatda foydalana olish;
- turizm sohasida strategik fikrlash, tahliliy qarorlar qabul qilish va boshqaruv qarorlarini asoslash malakasi;
- o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda aniq, mantiqiy va ilmiy uslubda ifoda etish qobiliyati;
- turizm barqaror rivojlanish, ekologik va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillarini faoliyatga tatbiq eta olish;
- ingliz tili va boshqa xorijiy tillarda ilmiy adabiyotlar bilan ishlay olish darajasida kasbiy til kompetensiyasiga ega bo‘lish.

TURIZM NAZARIYASI VA RIVOJLANISH TARIXI

Turizmning mohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni. Turizmning rivojlanish tarixi va bosqichlari. O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanish bosqichlari. Turist va sayohatchi tushunchalari, ularning farqlari. Qadimgi sayohatlar va ziyorat an'analari. Turizm turlari va shakllari: kirish, chiqish, ichki va xalqaro turizm. Tarixiy, madaniy, arxeologik, rekreatsion, diniy, ekologik, gastronomik va qishloq turizmi turlari. Aktiv va passiv turizm xususiyatlari. "Buyuk Ipak yo'li" va unda xalqaro turizmning o'rni.

TURIZM RESURSLARI VA ULARNING TURLARI

Turizm resurslari tushunchasi va ularning tasnifi. Tabiiy, madaniy-tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va axborot resurslari. O'zbekistonning tarixiy va arxitektura yodgorliklari. YuNESKO ro'yxatiga kiritilgan O'zbekiston shaharlari. Turizm resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish.

TURISTIK MAHSULOT VA XIZMATLAR TIZIMI

Turistik xizmat va mahsulot tushunchalari. Tur, turpaket, eksklyuziv va pekij-turlar. Xizmat ko'rsatish klasslari. Turistik mahsulot yaratish bosqichlari va narx belgilash omillari. Turizm talab va taklif, bozor muvozanati. Turistik xizmatlar eksporti va iqtisodiy samaradorligi.

MEHMONXONA XO'JALIGI VA JOYLASHTIRISH VOSITALARI

Mehmonxona industriyasi va uning turlari. Joylashtirish vositalari, tasnif va kategoriyalari. Xalqaro va milliy yulduzli tasnif tizimlari. Mehmonxona xizmatlarining asosiy va qo'shimcha turlari. Xalqaro mehmonxonalar qoidalari va globalashuv jarayonida sifat talablari. Mehmonxona faoliyatida innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar. Mehmonxona faoliyatida mavsumiylik, talab va ehtiyoj bog'liqligi. Mehmonxona va turoperator, turagent o'rtasidagi shartnoma tuzish tartibi.

OVQATLANISH, TRANSPORT VA GIDLIK XIZMATLARI

Ovqatlanish xizmatlarining turlari va usullari. Umumiy ovqatlanish korxonalari: tasnif, xizmat turlari. Transport xizmatlari: aviatsiya, temir yo‘l, avtomobil, dengiz transporti. Turizmدا transport infratuzilmasi va ta‘minot tizimi. Gid-ekskursiyachi xizmatlari, turlari, vazifalari va baholash metodikasi. Ekskursiya xizmatlarini tashkil etish va xavfsizlik tamoyillari.

TURISTIK MARSHRUTLARNI ISHLAB CHIQISH VA BOSHQARISH

Turistik marshrut tushunchasi va turlari. Marshrutlarni tayyorlash usullari, bosqichlari va tamoyillari. Turistik sayohatning texnologik xaritasi va yo‘l pasporti. Turistik safar xavfsizligi va hujjatlashtirish. Turistik infratuzilma va destinatsiya hayotiy davri nazariyasi.

TURIZM MENEJMENTI VA MARKETINGI

Turizm menejmentining nazariy asoslari. Turizmда zamonaviy menejer faoliyati. Turizm xizmatlari marketingi: maqsadli bozor, tadqiqot usullari. Turizm xizmatlari bozorining shakllanishi. O‘zbekistonda turizm boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi. Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyati. Davlatning turizm siyosati va uni amalga oshirish mexanizmlari. Turizmда strategiya va taktika. Normativ-huquqiy hujjatlar: “Turizm to‘g‘risida”gi qonun, farmonlar, qarorlar, strategiyalar.

XALQARO TURIZM VA HAMKORLIK

Xalqaro turizmning paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi. Xalqaro tashriflar dinamikasi va asosiy yo‘nalishlari. Xalqaro turizm bozori va O‘zbekistonning undagi o‘rni. Ichki va xalqaro turizm o‘rtasidagi aloqalar. Xalqaro tashkilotlarning roli. Xalqaro turizmning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘siri.

TURIZMDA SIFAT, XAVFSIZLIK VA STANDARTLASHTIRISH

Turistik faoliyatni litsenziyalash va sertifikatlashtirish. Standartlashtirish jarayonlari va asosiy standartlar. Turizmда xavfsizlikni ta‘minlash tamoyillari. Xalqaro huquqiy me‘yorlar asosida turistlar hayoti xavfsizligini kafolatlash.

Turizmga oid rasmiyatchilik turlari. Mehmonlarni qabul qilish va ro'yxatdan o'tkazish tartiblari.

TURIZM IQTISODIYOTI VA MOLIYAVIY MEXANIZMLARI

Turizm va mehmonxona faoliyati iqtisodiyotining asosiy ko'rsatkichlari. Turizmning makroiqtisodiy ahamiyati. Turistik biznesda raqobat, talab va taklif qonuniyatlari. Turistik xizmatlarda xarajatlar, foyda va rentabellik. Hukumat va xususiy sektor hamkorligi. Turizmni moliyalashtirish va investitsion mexanizmlar. Turizmda davlat va xususiy sheriklik modeli.

EKOTURIZM, GASTRONOMIK VA QISHLOQ TURIZMI

Ekoturizmning mohiyati, maqsadi va vazifalari. Ekoturizmning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati. O'zbekiston Respublikasining ekoturistik rayonlari. Gastronomik turizm va milliy taomlarning roli. Qishloq turizmining xalqaro modellari va O'zbekiston tajribasi.

MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA STATISTIK TAHLIL

Turizmda matematik modellashtirishning o'rni va usullari. Matematik statistikaning asosiy tushunchalari va ehtimollar nazariyasi. Tanlov usullari, gipotezalarni tekshirish nazariyasi. Fisher kriteriyasi va statistik tahlil usullari. Kompyuter modellashtirish va hisoblash eksperimentlarini tashkil etish. Turizm iqtisodiyotini modellashtirishda zamonaviy texnologiyalar.

Tayanch doktorantura (PhD)ga kiruvchilar uchun sinov imtihonining javoblarini baholash umumiy mezonlari

Ball	Bilim darajasi
86-100	Javoblarida fanning mavzulari va savollari bo'yicha ijodiy fikrlash mavjud bo'lsa, mamlakatimizda modernizatsiyalash jarayonlarini jadallashtirish, demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasidan kelib chiqqan vazifalarni bajarish yo'llari o'z aksini topgan bo'lsa, qo'yilgan muammoni yechish bo'yicha tavsiyalar bergan bo'lsa, savol bo'yicha javobda mustaqil mushohada yuritilgan bo'lsa, tavsiyalarni amaliyotga qo'llash tartiblari ko'rsatilgan bo'lsa

71-85	O'z javobida qo'yilgan savol bo'yicha mustaqil mushohada yuritgan bo'lsa, ularning mohiyatini deyarli to'liq ochib bergan bo'lsa, qo'yilgan muammoni yechish bo'yicha o'z tavsiyalarini bergan bo'lsa
55-70	Javobida fan bo'yicha variantga kiritilgan savollarga qisman javob bergan bo'lsa, asosiy tushunchalarga bergan izohi kam bo'lsada, mavjud bo'lsa
0-54	Javobida qo'yilgan savol mazmuni umuman yoritilmagan bo'lsa, izohlar mavjud bo'lmasa, ya'ni, talabgor javobida qo'yilgan savollar bo'yicha umuman tasavvurga ega emasligi aniq bo'lsa

Izoh: Tayanch doktoranturaga kirish imtihonlari bo'yicha topshiriladigan birinchi fan (mutaxassislik yoki chet tili) umumiy ballining 50% dan kam ball to'plagan talabgorlar keyingi bosqichga o'tkazilmaydi.

08.00.05 – “Xizmat ko‘ratish tarmoqlari iqtisodiyoti” ixtisosligi bo‘yicha baholash mezonlari

№	Umumiy ball	Tayanch doktorantura (PhD)ga kiruvchining bilim darajasi	Xususiy ball
Savol nazariy bo'lsa			
1	18-25	Qo'yilgan savollar mazmunan aniq yoritilib, demokratik islohotlar va jarayonlarning mazmunan mohiyati to'liq ochib berilgan;	8-10
		O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy islohotlar tahlili va ularning amaliy samaralari, natijalari va hayotga tadbqiq etilishi bo'yicha mustaqil, ijodiy fikr mavjudligi;	6-7
		Javoblarda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega;	4-5
		Imlo va stilistik xatolarga yo'l qo'yilmagan.	0-3
			18-25
2	13-19	Materialni chuqur tushunadi, savolga to'liq javob bergan, lekin ayrim noaniqliklarga yo'l qo'ygan, faktlarga to'g'ri baho bera olgan, mustaqil fikrlash va xulosalarni asoslay olish qobiliyatiga ega,	6-8
		javobda mantiqiy ketma-ketlikka amal qiladi, masalani hal qilishga umuman ijodiy yondasha olgan;	5-6
		Javobda doktorantura (PhD)ga kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi;	2-4
		Ijodiy yondashuv mavjud; Muammoni tahlil qilish qobiliyatiga ega.	0-1

			13-19
3	4-10	Savolga javobda masalaning mohiyatini tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan; Mushohada bayonida fikr tarqoqligi kuzatiladi; Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan; Tasavvurga ega, lekin tahlil yo'q;	2-3 1-3 1-2 0-1 0-1
			4-10
4	0-3	Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas; Umuman javob yozilmagan; Noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan; O'quv adabiyotidan aynan so'zma-so'z ko'chirilgan;	0-3
			0-3

Izoh: Imtihon jarayonida talabgorlar 4 ta savolga javob berishlari talab etiladi.
Har bir savolga maksimum 25 ball beriladi.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv-qo'llanmalari ro'yxati:

Asosiy adabiyotlar va o'quv-qo'llanmalar:

1. Alieva M.T. Turizm bozori menejmenti. O'quv qo'llanma.-T.: TDIU, "Iqtisodiyot", 2020.- 256 b.
2. Alieva M.T. Turizm mahsulotlari marketingi. O'quv qo'llanma.-T.: TDIU, "Iqtisodiyot", 2020.- 154 b.
3. Alieva M.T. Turizmda atrof-muhitni boshqarish. Darslik.-T.:Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021.- 284 b.
4. Boltabaev M.R., Safarov B.Sh., Tuxliev I.S., Abduxamidov S. -Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2018.-400 b.
5. Eshtaev A.A., Abdurakhmonov K.Kh., Management and Marketing of tourism. - Published bu UCSI Publishing house, No.1 Jalan Menara Gading, UCSI Heights, 56000 Kuala Lumpur, Malaysia 2013. P.264
6. Eshtaev A.A., To'xliev I. O'zbekiston turistik-rekratsion salohiyatini rivojlantirishda mintaqaviy geoaxborot tizimini shakllantirishning metodologik asoslari. Monografiya. – Samarqand, "Turon Nashr", 2021. - 272 b.

7. Ibragimov N.S., Destinatsion menejment: davlat miqyosida turizmni bozor usulida boshqarish san'ati // -Toshkent. "Turon zamin ziyo", 2014 y, - 148 b.
8. Ibragimov N.S., Turistik destinatsiyalarni boshqarish fanidan metodik qo'llanma. - Buxoro: Durdona nashriyoti, 2016 y., 108 b.
9. Ibragimov N.S., Turistik hudud raqobatbardoshligi / Darslik – Buxoro – 2021. Durdona nashriyoti. 180 bet.
10. Ibragimov N.S., Turistik hududlarni boshqarish / Darslik – Buxoro – 2022. Durdona nashriyoti. 120 bet.
11. Ibragimov N.S., Turistik hududni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari // [Matn]: - Buxoro: Durdona nashriyoti 2020. - 204 b.
12. Norchaev A. Turoperator menejmenti. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, "Iqtisodiyot", 2019.- 256 b.
13. Norchaev A., Nurfayzieva M. Mintaqaviy turizm. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, "Iqtisodiyot" 2020.- 224 b.
14. Norchaev A., Umirova D. Ekskursiya xizmatlarini tashkil etish. O'quv qo'llanma.– T.:TDIU, "Iqtisodiyot" 2019.- 192 b.
15. Norchaev A., Umirova D. Turizmda transport xizmatlari. O'quv qo'llanma– T.:TDIU, "Iqtisodiyot" 2020.-256 b.
16. Norchaev A., Xalimova F., Mehmonxona xo'jaligida innovatsiya. O'quv qo'llanma.– T.: TDIU, "Iqtisodiyot" 2019.- 179 b.
17. Safarov B.Sh., Raximov Z., Xayitboev R., Ibadullaev N. Turopereyting O'quv qo'llanma. - Toshkent, "Fan va texnologiya", 2018 - 300 b.
18. Turdibekov X.I., Turaev B.X., Ibodov K.M. va boshqalar. Mehmonxona xo'jaligida xizmatlar sifatini boshqarish. O'quv qo'llanma. T.: "Moliya-iqtisod" nashriyoti, 2020.-368 b.

Tavsiya etiladigan qo‘shimcha adabiyotlar:

19. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida” gi Qonuni. 18.07.2019 yildagi O‘RQ-549-son. - <https://www.lex.uz/docs/4428097>
20. “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2016 yil 2 dekabr, PF-4861-son.
21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni - Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son - <https://lex.uz/docs/5841063>
22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 fevraldagi “Turizm, madaniy meros va sport sohalarida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-75-son Farmoni - Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 19.02.2022 y., 06/22/75/0150-son - <https://lex.uz/docs/5868604>
23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5781-son Farmoni - Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 08.04.2021 y., 06/21/6202/0342-son - <https://lex.uz/docs/4474527>
24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 fevraldagi “Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-135-son Qarori - Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 19.02.2022 y., 07/22/135/0148-son - <https://lex.uz/docs/5868619>
25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 oktyabrdagi “Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5270-son Qarori - Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.10.2021 y., 07/21/5270/1006-son - <https://lex.uz/docs/5701949>
26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi “Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-

4095-son Qarori - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.01.2019 y., 07/19/4095/2426-son - <https://lex.uz/docs/4141452>

27. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 433-son Qarori - Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.07.2020 y., 09/20/433/1140-son - <https://lex.uz/docs/4930291>

28. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11

29. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 29 b.

30. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 b.

31. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

32. O'zbekiston Respublikasida turizm industriasini boshqarishning marketing strategiyasi. Monografiya. Eshtaev A.A., Raxmonov I. -Samarqand: SamDU nashri, 2019 yil.-170 b.


33. Norchaev A., Pardaev A. Xalqaro turizm. Darslik. – T.: TDIU, 2010-264.

34. Norchaev A., Xamidov O. Ekoturizm. Darslik. T.: TDIU, 2011. 139 b.

35. Turdibekov X.I., Tashmatov Sh.U. va boshqalar. Restoran menejmenti. O'quv qo'llanma. Samarqand, "Turon-nashr", 2020.-332 b.

36. Turdibekov X.I., Turaev B.X., Ibodov K.M., Ergashxodjaeva Sh.Dj.
Marketing kommunikatsiyalari. Turizm yo'nalishi talabgorlari uchun o'quv
qo'llanma. - T.: "Transport", 2021. – 319 b.

Kafedra mudiri:

A handwritten signature in black ink, consisting of stylized, flowing letters and a long horizontal stroke at the end.

N.S.Ibragimov